DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18155133

XALQ TABOBATI HAQIDA FALSAFIY MUSHOHADA

Mirsidiqova Madina

TDTU 1- bosqich talabasi

Yuldasheva L.S.

Ilmiy rahbar: TDTU dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq tabobatining shakllanish tarixi, rivoji, muammo va istiqbollari yoritilgan. Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan xalq tabobati avloddan avlodga o‘tib necha ming yillik tajribalar asosida sayqallandi va bizgacha yetib keldi. Falsafiy olimlar xalq tabobati tarixi insoniyat yaratilishi bilan tengligini ta’kidlashmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki xalq tabobati rivojalanib kelayotgan bugungi kunda falsafaning o‘rni beqiyos.

***Kalit so‘zlar**: Xalq tabobati, xalq tabobati tarixi, falsafa, inson salomatligi, allomalar, sog‘lom turmush tarzi.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается история возникновение развитие а также проблемы и перспективы народной медицины. Народная медицина, имеющая многовековую историю, совершенствовалась из поколения в поколение на основе тысячелетнего опыта и дошла до нас. Ученые-философы подчеркивают, что история народной медицины равна созданию человечества. Как видно из этого, с развитием народной медицины значение философии сегодня несравнимо.

***Ключевые слова**: народная медицина, история народной медицины, философия, человеческая сила, мудрецы-целители, история человечества, здоровый образ жизни.*

ABSTRACT

Folk medicine, which has a long history, has been refined from generation to generation based on thousands of years of experience and has reached us. Philosophical scientists emphasize that the history of folk medicine is equal to the creation of mankind. As can be seen from this, with the development of folk medicine, the importance of philosophy today is incomparable.

Keywords*: folk medicine, history of folk medicine, philosophy, human power, philosophical scientists, human history, health.*

KIRISH

Tibbiyot fanlari rivojlanishining muhim sharti bu- yuqori darajadagi fikralash qobilyatidir. Falsafa- tibbiyotning o‘zaro ta’siri tabiiy va biologik fanlari taraqqiyoti bilan birga rivojlanadigan hamda dialektik fikrlash orqali shakllanadigan, mantiqiy mulohazani takomillashtirishda yordam beradigan fan hisoblanadi. Aslida xalq tabobati va an’anaviy tabobat tushunchalarining mohiyati bir butun yaxlitlikni tashkil etadi. Ya’ni xalq tabobati - tibbiyotning an’anaga aylangan ko‘rinishidir. Xalq esa, tibbiy ko‘rinishlarning an’anaviy shaklidan foydalanadi. Xalq tabobati turli jamiyatlarning, shu jumladan mahalliy xalqlarning - xalq e’tiqodlari doirasida asrlar davomida shakllangan an’anaviy va noan’anaviy bilimlarining tibbiy jihatlarini o‘z ichiga oladi. Tibbiyotning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi tibbiyotda ham fikrlash va mulohaza qilish hamda ularni birlashtirish jarayonlari mavjud. Dialektika - tibbiyotning ilmiy bilimlar jarayoni yaxlitligi va samaradorligini ta’minlivchi asosiy integratsiya usuli hisoblanadi. Falsafa va tibbiyot fanlari birlashmasi tibbiy nazariy va amaliy faoliyat tizimida ilmiy bilimlarni birlashtirishning eng muhim uslubiy shartlaridan biridir. Falsafiy tibbiyotning muhim shartlaridan biri uning odam va hayvonlar organizmi haqidagi bilimlarni tahlil qilishdir.

METODLAR VA TAHLIL

Bir necha asrlardan buyon xalq tabobatiga bo‘lgan ilmiy qiziqish juda kuchaygan. Hozirgi kunda xalq tabobatini o‘rganish, uning nazariy va huquqiy asoslarini tiklash

borasida mintaqaviy va xalqararo miqyosda ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Shu kunga qadar dunyo xalqlarining tabobat an’analari etnologik jihatdan tadqiq qilinib, muammolarni hal qilishga doir metodlar, qarashlar ishlab chiqarilmoqda. Falsafiy tibbiyotning asosiy tamoyillari:

1. Evolutsionizm tamoyili. Tirik mavjudodlarning rivojlanishi. Tirik tabiatdagi evolutsiya tirik tizimlarning moslashuvchan imkoniyatlari doirasidagi tuzilamalarning sifat o‘zgarishiga nisbatan qaraladi. Kasallikni evolutsion nuqtai nazardan tahlil qilishga yondashish patogenezning ziddiyatli hodisalari va jarayonlarini baholashda dogmatizmdan qochadi.

2. Umumiylik tamoyili kasallikning mohiyatini tananing barcha tizimlari va darajalarini qamrab oladigan jarayon sifatida tushunish. Patologik hodisalarni umumiylik tamiyilini hisobga olgan holda tahlil qilish kasallik jarayonlarining lokalizatsiya qilishning qarama qarshi hlxususiyatlarini tushunishga imkon beradi, bu organizmning umumiy reaksiyalarini hisobga olmasdan tushunib bo‘lmaydi

3. Tuzilish tamoyili. Har doim dialektik birlikda paydi boladigan patologiyada funksional va morfologik buzilishlarning qarama qarshiligini oldini olishga imkon beradi.

4. Dinamizm tamoyili ya’ni tirik tizimlarning o‘zini o‘zi harakatlantirishi va o‘zini o‘zi boshqarish va rivojlantirish. Ichki qarama qarshiliklarsiz nafaqat patologik jarayon balki norma ham bo‘lmaydi. Bu barqarorlik va o‘zgarishkarning birligi va kurashishning natijasidir.

5. Reaktivlik tamoyili harakatlantiruvchi va reaksiyaga kirishuvchi tizimlar orasidagi munosabatni ifodalaydi.

6. Sabablilik tamoyili patologik jarayonning barcha bosqichlari va bosqichlarining sababliligini tan olish. Tashqi ta’sirlar reaksiyaga kirishadigan tizimning ichki xususiyatlari orqali maxsus ravishda o‘zgaradi. Bu tiriklikni sababiy aniqlashning asosiy mohiyatidir.

MUNOZARA VA NATIJALAR

Falsafning predmeti voqelikning tabiat, jamiyat, inson, obyektiv voqealik va subyektiv olam, moddiy va ideal, borliq va tafakkurning o‘zaro haqiqiy aloqalaridir. Falsafiy tibbiyotni yaratish asosan uning obyektini ko‘p darajali talqini bilan boǧliq bolib uning muhim xususiyatlari nafaqat tanaga balki bir qator ichki organlar darajalariga boǧliqdir. Populyatsiyaga kiritilgan organizmning o‘ziga xos qonunlari bilan ko‘rib chiqishda norma va patologiya o‘rtasidagi harakatlanuvchi chegaralarni aniqlash mumkin.

XULOSA

Xalq tabobati falsafasi fani inson ruhi va tanasining bir butun yaxlitlikda rivojlanishini, ya’ni tanani ruh va jondan alohida mavjud bo‘lmasligini izohlaydi. Xalq tabobatining mohiyatini ifodalovchi falsafa inson dunyosini tushunish bilan birga uning ruhiy olamini ham o‘rganadi. Xalq tabobati uchun falsafa havo kabi zarur, chunki inson faqat ichki a’zolari va to‘qimalaridan iborat bo‘lmay, balki uning joni va ruhi ham tananing a’zosi sanaladi. Jon va ruh azoblansa, albatta, tana ham azob chekadi. Insonning ruhiy kechinma va his tuyǧularini tanadan chiqish yo‘llarini topolmay, tanaga "urilganda" uning sababi qidiriladi va bu ruhiy jarohatlarning asosiy mohiyati aynan hissiyotlar bilan boǧliqligi aniqlanadi. Ahunday qilib, xalq tabobati falsafasi - bu inson hayotining xavfsizligi va millat salomatligini saqlash nuqtai nazaridan milliy madaniyatlarning an’anaviy bilimlar asosida rivojlangan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. L.S.Yuldasheva Xalq tabobati falsafasi T.: Invest book -2023

2. Yuldasheva, L.S., & Tursunbayev, Farrux Aziz O‘G‘Li (2023). TIBBIYOT BILIMLARIDA FALSAFANING ROLI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

3. Hayrullayeva Mahzumabonu Muzaffarbek Qizi, & Yuldasheva. L.S. (2023). AXLOQIY MADANIYAT VA QADRIYATLAR. TIBBIY ETIKA. Tafakkur manzili, 03-05 , 257-259. doi: 10.24412/2160-2130-2023-257-259 3 (6), 686-692.

4. Юлдашева, Л. С., & Абдурахимова, Д. М. (2021). ЖАМИЯТДА ОДОБ-АДЛОК МЕЪЁРЛАРИНИ БУЗИЛИШИНИНГ ИЖТИМОИЙ ОМИЛЛАРИ. *Журнал Социальных Исследований*, *4*(4).

5. Yuldasheva, Lola Sadullaevna. "LOGICAL TEACHING OF ABU ALI IBN SINA" International scientific journal of Biruni, vol. 2, no. 4, 2023, pp. 51-58.

6. Sadullaevna, Y. L., & Baratovna, A. G. (2021). Logical Principles in the Doctrine of Ibn Sina and Their Formation Characteristics. *European Scholar Journal*, *2*(4), 208-211.